

DAVLAT QARZI VA UNING TA'SIR ETUVCHI OMILLARI

*Negmatov Bexruz Norboy o'g'li
Xushboqov Doniyor Bahadir o'g'li*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya" fakulteti
MMT-96h guruh 4-kurs talabasi*

Annotatsiya: maqolada davlat va tashqi qarz bilan bog'liq vaziyatni muntazam nazorat qilish, uning xavfsiz chegarasini aniqlash va xatarlarning oldini olish, davlat qarzini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish hamda davlat rivojlanish dasturlari doirasidagi samarali loyihalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: davlat qarzi, jahon iqtisodiyoti, valyuta kursi, iqtisodiy o'sish, byudjet taqchilligi, infratuzilma, qarz mablag'lari.

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi sharoitda davlat qarzini boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda qarz olishning tashqi manbalari bilan bir qatorda mablag'larning ichki manbalaridan foydalanishning zamonaviy mexanizmlarini nazarda tutuvchi qarz olishning ichki bozorini rivojlantirish zarur bo'lgan holatlar asosiy bo'lishi kerak. Shuningdek, milliy manfaatlardan kelib chiqib, bizga qarz berayotgan mamlakatlar bo'yicha diversifikatsiya qilish zarur. Zero, davlat qarzi, ayniqsa, tashqi qarz tavakkalchilik bilan bog'liq va bu haqiqatdir. Shu sababli iqtisodiy xavfsizligimiz nuqtayi nazaridan maqsad, rivojlanish strategiyasi va ularga erishishga qaratilgan chora-tadbirlar qarz mablag'larini, eng avvalo, iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha davlat rivojlanish dasturlari, ijtimoiy soha va infratuzilmani rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish loyihalari doirasidagi loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirishga undaydi. Shunday ekan, ishonamizki, O'zbekistonda davlat qarzi muammolarning yuzaga kelishiga emas, balki taraqqiyot uchun yangi imkoniyatlar ochilishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda davlat va tashqi qarz bilan bog'liq vaziyatni muntazam nazorat qilish, uning xavfsiz chegarasini belgilash va ushbu sohadagi xatarlarning oldini olish masalalari doimiy e'tiborda bo'lib kelmoqda. Hozirgi vaqtda xorijdan mablag' jalb qilish iqtisodiyotning o'sishi va xalq farovonligiga xizmat qilmoqda va tashqi qarz miqdori boshqa davlatlarga nisbatan ancha past. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har bir davlatga ham qarz berilmaydi: buning uchun u dunyoda obro'-e'tibor va ishonchga ega bo'lishi kerak. Har qanday mamlakatda o'zlashtirishga ehtiyoj paydo bo'lishi mumkin. Bunday zarurat nafaqat iqtisodiy inqiroz yoki turg'unlik tufayli, balki strategik ahamiyatga ega bo'lgan loyihalar yoki dasturlarni amalga oshirish uchun ham yuzaga keladi. Bular, masalan,

mamlakatda infratuzilmani yaratish, kambag'allikni qisqartirish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, mudofaani kuchaytirish va boshqalar. Davlat byudjeti bunga imkon bersa, yaxshi. Aks holda ko'zlangan maqsadlardan voz kechishga yoki uning yuzaga kelgan taqchilligini davlat qarzini tashkil etuvchi qo'shimcha mablag'larni jalb qilish hisobiga qoplashga to'g'ri keladi. Bu qarzni qoplash uchun faqat ikkita manba bor: birinchisi - soliqlarni oshirish, ikkinchisi - boshqa qarzlarni jalb qilish. Dunyoda davlat qarzini ko'paytiradigan qarz mablag'larini jalb qilish muammosiga duch kelmagan birorta davlat yo'q. Ichki va tashqi manbalar hisobidan jalb qilingan mablag'lar samarali boshqarilmasa, moliyaviy barqarorlik va investitsiya muhiti uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Tashqi qarz darajasini belgilovchi chetdan jalb qilingan qarz mablag'lari bir qancha tahdidlarni keltirib chiqaradi. Chet el valyutasida olingan katta miqdordagi qarz valyuta kursining keskin oshishi tufayli moliyaviy yuklamaning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Ushbu muammo, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda, shuningdek, iqtisodiyoti o'tish bosqichida bo'lgan mamlakatlarda xavotir uyg'otmoqda. Bundan tashqari, jahon iqtisodiyotida qarz olishga bo'lgan talab yildan yilga ortib bormoqda.

Davlat qarzi, ayniqsa, tashqi qarz tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lsa-da, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar ushbu mablag'lardan iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim manbai sifatida foydalanmoqda. O'zbekiston ham bundan mustasno emas. 2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, O'zbekistonning davlat qarzi birinchi yarimyillikda 2,1 milliard dollarga ko'payib, 37 milliard dollardan oshdi. Bu haqda bosh vazir o'rinbosari, Iqtisodiyot va Moliya vaziri Jamshid Qo'chqorov 5-sentabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisidagi nutqida ma'lum qilgan. *Tashqi qarz davlat va xususiy qarzlardan iborat. Ta'kidlash joizki, "xususiy" sektorda asosan davlat ulushga ega bo'lgan kompaniyalar va banklar ifodalanadi (davlat bank sektorining 68 foizga yaqin ulushiga ega, shuningdek, 2019–2021-yillarda jami 2 mlrd dollarlik qarzdorlik qog'ozlarini muomalaga chiqargan UzAuto Motors va "O'zbekneftgaz", O'zmilliybank, "O'zsanoatqurilishbank"ning egasi yoki egalaridan biri hisoblanadi).* Bu davrda davlat tashqi qarzi 1,26 mlrd dollarga ko'payib, 30,9 mlrd dollarni (27,7 foiz) tashkil etdi. Davlat ichki qarzi 842 mln dollarga oshib, 6,13 mlrd dollarni tashkil qildi (yalpi ichki mahsulotning 5,5 foizi). Davlat tashqi qarzining ulushi esa 83 foiz, ichki qarzi 17 foiz bo'ldi. Bosh vazir o'rinbosarining so'zlariga ko'ra, yanvar-iyun oylarida O'zbekiston nomidan va hukumat kafolati ostida 2,8 mlrd dollarlik tashqi qarzlar bo'yicha kelishuvlar imzolangan. Bundan tashqari, davlat budjetini qo'llab-quvvatlash va joriy yilda to'lanishi lozim bo'lgan xalqaro obligatsiyalarni qayta moliyalashtirish maqsadida jahon moliya

bozorlariga 1,5 mlrd dollarlik suveren xalqaro obligatsiyalar chiqarilgan. Davlat qarzining mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbati 34,4 foizdan 33,2 foizgacha kamaydi. “Xalqaro valyuta jamg‘armasi hisobotiga ko‘ra, ayni paytda respublikaning davlat qarzi o‘rtacha darajada”, — dedi Qo‘chqorov. Taqqoslash uchun: 2017-yilda davlat qarzi 11,5 mlrd dollarni (yalpi ichki mahsulotga nisbatan 11,6 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, olti yil ichida bu ko‘rsatkich uch barobarga oshgan. Gap “xususiy” qarzni hisobga olmagan holda faqat davlat qarzi haqida ketmoqda.

Iqtisodiy tarmoqlar bo‘yicha davlat tashqi qarzi taqsimlanishi quyidagicha:

Sohalar	2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra		2024-yil 1-iyul holatiga ko‘ra		O‘zgarish, %
	million dollar	qarzning foizi	million dollar	qarzning foizi	
Davlat tashqi qarzi, jami	29 639	100%	30 899	100%	
shu jumladan:					
Davlat budjetini qo‘llab-quvvatlash uchun	11 738	40%	13 024	42%	11
Yoqilg‘i-energetika sanoati	5 791	20%	5 741	19%	-1
Neft va gaz	2060	7%	1910	6%	-7
Elektr energetikasi sanoati	3 427	12%	3 487	11%	2
Ko‘mir sanoati	304	1%	344	1%	13
Transport va transport infratuzilmasi	2771	9%	2 725	9%	-2
Temiryo‘llar	1 196	4%	1 181	4%	-1
Magistral yo‘llar	1 114	4%	1 129	4%	1
Havo transporti	461	2%	416	1%	-10
Qishloq va suv xo‘jaligi	2 657	9%	2 750	9%	4
Qishloq xo‘jaligi	1870	6%	1964	6%	5
Suv xo‘jaligi	787	3%	786	3%	0
Uy-joy kommunal xo‘jaligi	2 610	9%	2712	9%	4
Uy-joy qurilishi	1 364	5%	1 348	4%	-1
Ichimlik suvi ta‘minoti va kanalizatsiya	847	3%	865	3%	2
Shahar va qishloqlarda infratuzilmani yaxshilash	264	1%	351	1%	33

Maishiy chiqindilarni qayta ishlash	85	0%	89	0%	5
Issiqlik ta'minoti	50	0%	59	0%	18
Tadbirkorlik va sanoat ishlab chiqarishini qo'llab-quvvatlash	1078	4%	863	3%	-20
Kimyo sanoati	896	3%	811	3%	-9
Sog'liqni saqlash, ta'lim, AKT va boshqa sohalar	2098	7%	2 272	7%	8

O'zbekistonning xorijdagi asosiy kreditori Jahon banki hisoblanadi. Uning O'zbekiston Respublikasidagi portfeli 6,73 mlrd dollorga teng. Ikkinchi o'rinda Osiyo taraqqiyot banki (6,46 mlrd dollar), uchinchi o'rinda xalqaro investorlar (xalqaro yevrobondlar) (4,2 mlrd dollar).

Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan, umumxalq muhokamasidan so'ng qabul qilingan Taraqqiyot strategiyasi maqsad va vazifalarni qamrab olish jihatidan Harakatlar strategiyasidan ancha kengdir. U amalga oshirishning aniq mexanizmlariga ega. Mazkur hujjat doirasida sanoatni va u bilan bog'liq ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish sohasida keng ko'lamli loyihalar ustida ish olib boriladi. Misol uchun, strategiyada belgilangan 22 ta maqsaddagina sanoatning yetakchi tarmoqlarini kengaytirish, energiya resurslari va tabiiy gazga bo'lgan ehtiyojni qondirish, mis sanoati klasterini tashkil etish, kimyo va gaz-kimyo tarmoqlarini rivojlantirish kabi vazifalar belgilangan. Umuman, kelgusi besh yilda iqtisodiyotni 1,6 barobarga, sanoat ishlab chiqarishini 1,4 barobarga, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (aholining real daromadlari) ni qariyb 1,5 barobarga oshirish rejalashtirilgan. Bunday marralarga erishish uchun davlatdan ijtimoiy sohani rivojlantirish, ishlab chiqarish bilan bog'liq infratuzilmani shakllantirish talab etiladi. Buning uchun, albatta, o'zlashmalarning ichki va tashqi manbalaridan foydalaniladi. Agar ichki va tashqi qarzdorlik belgilangan mezonlar ko'rsatkichlari mamlakat moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasa va davlat rivojlanish dasturlari doirasida eng dolzarb va samarali loyihalarga yo'naltirilsa, bunday xarajatlar iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan muammolarni keltirib chiqarmaydi. Buning uchun davlat qarzini samarali boshqarishning huquqiy asoslari va mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://cbu.uz/uz/>
2. <https://www.imv.uz/static/tarmoqlar>
3. Макейкина, С.М. Управление государственным долгом: существующие проблемы и пути их решения [Текст] / С.М. Макейкина // Вектор экономики. 2017. № 8 (14).
4. Кулаева, А.М. Принципы управления государственным долгом [Текст] / А.М. Кулаева // Актуальные проблемы социально-гуманитарного и научно-технического знания. 2017. № 3 (12).
5. Турсунова, М. М. Сущность и значение государственного долга в экономике [Текст] / М.М. Турсунова // Молодой ученый. — 2019. — №10.
6. Nurmuxamedova B.I., Xamdamov Sh.K. Davlat moliyasi. Darslik. –Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2021. – 436 b.